

O‘ZBEK YOZUVI TARIXIDAN

JDPI talabasi Mamatova Laylo

Yozuv deb tilning matn orqali ifodalanishiga aytiladi. Muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o‘rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi yozuv deyiladi. Yozuv kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining tom ma’nodagi ibtidosi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiylaridan biridir. Yozuv tildan ancha keyin paydo bo‘lgan. Tovush tili 400- 500 ming yil ilgari yuzaga kelgan. Yozuvning opaydo bo‘lganiga esa 4- 5 ming yil bo‘lgan. Og‘zaki tilning zamon va makon nuqtayi nazaridan cheklanganligi va ini bartaraf etish zaruriyati yozuvning paydo bo‘lishiga olib kelgan. Kishilik jamiyati yaratgan bilim va tajribalar, kashfiyot va ixtirolar, so‘z san’ati durdonalari va boshqa qimmatli axborotlarni ajdodlardan avlodlarga yozuv orqali yetib keladi.

Markaziy Osiyoda eng qadimgi davrlarda yashagan qabilalar to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlar grek ,eron, xitoy tarixchilari va yozuvchilari asarlarida, toshlarga bitib qoldirilgan yozuv va boshqa materiallarda bayon qilingan. Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbek xalqi qadimda turli yozuvlardan foydalanib kelgan. O‘zbek yozuvlari tarixida amalda ishlatib kelingan asosiy yozuv tizimini fonografik ,ya’ni tovush yozuvi, harfiy yozuv, alfavit foydalanib kelingan. O‘zbek xalqi Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari singari oromiy ,yunon, karoshta, sug‘d, Xorazm, Kushon ,eftalit, pahlavon , suriya, hind, o‘rxun (runik) , uyg‘ur, arab ,lotin ,kiril kabi bir qancha yozuvlardan foydalangan.

Eramizdan avvalgi VI- IV asrlarda Markaziy Osiyoning Eronga yaqin hududlarida rasmiy yozuv sifatida klinopis (mixxat) yozuvi ishlatilgan. Ayrim joylarda esa xalqaro muomalada oromiy yozuvi qo‘llanilar edi. Oromiy yozuvi klinopisdan oddiy va qulay edi. Turli yodgorliklarda qayd etilishicha , eramizdan avvalgi II- I asrlarda oromiy yozuvi bilan bir qatorda yunon va karoshta yozuvlari ham qo‘llangan. Eramizning boshlarida

soʻgʻd yozuvi qoʻllanilar boshladi. Bu yozuv ,taxminan, VI asrlargacha davom etdi. Xorazm shohi chiqargan pullarda xorazm yozuvi uchraydi. Bu yozuv Oʻrta Osiyoda ancha keng tarqalgan boʻlib, oromiy yaqin edi.

V- VII asrlar davomida turkiy xalqlar oʻrxun-enasoy nomli yozuvdan keng foydalanganlar. Bu yozuv baʼzan runik yozuvi deb ham yuritiladi. Yenisey daryosi havzasidan topilgan. Oʻrxun yozuvi yodgorliklari haqida dastlab XVIII asrning boshida rus xizmatchisi Remezov xabar berdi. Keyinroq Shved ofitseri Iogann Stralenberg shu daryo havzasida nomaʼlum yozuvli tosh borligini qayd etadi. Oʻrxun-enasoy yozuvi turkiy xalqlarning eng katta madaniy yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Ayni vaqtda ushbu yozuv turkiy xalqlarning jahon xalqlari orasida eng qadimiy va yetuk madaniyatga ega boʻlganligidan dalolat beradi. Koʻrinadiki, mazkur yozuv ham tarixiy, ham siyosiy, ham madaniy jihatdan beqiyos oʻrin tutadi.

VI-VII asrlardan boshlab turkiy xalqlar va moʻgʻullarda uygʻur alfaviti qoʻllangan. Akademik V.V. Radlovning taʼkidlashicha bu alfavit turkiy xalqlar orasida ancha keng ishlatilgan. XIV- XV asrlarda yaratilgan “ Baxtiyornoma” ,”Meʼrojnomasi”,” Tazkirayi avliyo” kabi asarlar uygʻur yozuvida koʻchirilgan. Hatto 1469- yilda tuzilgan Umarshayx Mirzo yorligʻi ham uygʻurcha yozilgan.

VII- VIII asrlarda Oʻrta Osiyo arablar tomonidan bosib olindi va shundan keyin barcha Oʻrta Osiyo xalqlari qatori oʻzbek xalqi ham arab yozuvi bilan ish koʻra boshlaydi. Arab yozuvi oʻzbek tili xususiyatlariga koʻp jihatdan muvofiq kelmas edi. Arab alifbosida 28 ta harf mavjudligiga qaramay, ularning 4 koʻrinishda (7 harf bundan mustasno) yozilishi oʻzbek xalqining savodli boʻlishiga sira yordam bermas edi. Arab alifbosi yozilishi jihatidan murakkab boʻlishi bilan birga oʻzbek tilining maxsus tovushlarini ifoda eta olmas edi. Arab yozuvi Oktabr toʻntarishi (1917- yil) dan keyin ham bir necha yillar davomida amalga boʻldi. Biroq endilikda arab yozuvi madaniyatning talablariga toʻla javob bera olmay qoldi, bu yozuv xalqni tez orada yoppasiga savodli qilish, ilmiy , badiiy, siyosiy adabiyotlarni koʻplab bostirish gazeta- jurnallarni xalq orasida tezda tarqatish ishiga toʻsqinlik qiladi.

Natijada 1929- yildan o‘zbek yozuvi lotinlashtirilgan alofboga ko‘chirildi. Bu yozuv turkiy tillardagi tovushlar xususiyatini ,xususan, ularga xos fonetik hodisalarni berishda arab alifbosiga nisbatan birmuncha qulaylikka ega edi, ammo 1940- yilda sobiq sho‘rolar hududida kirill alifbosiga o‘tishga qaror qabul qildi va bu yozuv 1991- yilgacha o‘zbek xalqining “ milliy” yozuvi sifatida amal qildi. 1993- yil O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi lotin alifbosini milliy yozuv sifatida qabul qilishga qaror qildi. Bugungi kunda ham o‘zbek xalqi lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek yozuvidan foydalanib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nargiza Erkaboyeva “ Hozirgi o‘zbek adabiy tili” ma’ruzalar to‘plami.
2. Otabek Shukurov “ Uchtasi birda” .
3. Madrim Hamrayev “ Ona tili “ 2020.